



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 25-mart

143-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

**Namangan viloyati hokimining 2025-yil 20-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahsulotlarni eksport qilish tartib-taomillarini takomillashtirish va qo‘shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 14-martdagi PF-47-son Farmoni ijrosi haqida”gi 145-6-0-Q/25-son qarori to‘g‘risida**

Eksport tartib-taomillarini yanada takomillashtirish, mahalliy xomashyo asosida qo‘shilgan qiymatga ega tayyor mahsulot ishlab chiqarishni rag‘batlantirish va qayta ishlash sanoatining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahsulotlarni eksport qilish tartib-taomillarini takomillashtirish va qo‘shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 14-martdagi PF-47-son Farmoni hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 20-martdagi 145-6-0-Q/25-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 21<sup>1</sup>-moddalariga muvofiq,

### **QAROR QILAMAN:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahsulotlarni eksport qilish tartib-taomillarini takomillashtirish va qo‘shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 14-martdagi PF-47-son Farmoni hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 20-martdagi 145-6-0-Q/25-sonli qarori rahbarlik va ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-martdagi PF-47-son Farmoni bilan:

Farmonni qabul qilishdan ko‘zlangan asosiy maqsad etib eksport tartib-taomillarini Jahon savdo tashkiloti qoidalariga muvofiqlashtirish belgilanganligi;

2025-yil 1-iyuldan boshlab ayrim turdagi xomashyo tovarlari va ijtimoiy ahamiyatga ega mahsulotlarga nisbatan eksport bojxona bojlari joriy etilishi hamda ularning stavkalari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga 2-ilovaga muvofiq quyidagilarni bekor qilishni nazarda tutuvchi o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritilganligi:

(a) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari asosida buyumlar va mahsulotlarni eksport qilish tartibini;

(b) ayrim turdagi tovarlarni eksport qilishda undiriladigan yig‘imlarni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlari 3-ilovaga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Namangan viloyati hokimining 2025-yil 20-martdagi 145-6-0-Q/25-sonli qarori bilan:

Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi (R.Rasulov) manfaatdor boshqarma va idoralar, Namangan shahar va tumanlar hokimliklari bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-martdagi PF-47-son Farmoni talablari asosida ish tashkil etish vazifasi yuklatilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining Moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari–Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i A.Abdusalomov hamda tuman hokimining o‘rinbosari-Investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi boshlig‘i zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**A.Mansurov**